O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

KUDRATOV SANJAR MARUPOVICH

JINOYAT PROTSESSIDA NODAVLAT SUD-EKSPERTIZA TASHKILOTLARI FAOLIYATINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2026

UO‘K: 343.13:343.148

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской диссертации (PhD)

Contents of the abstract of the dissertation of the doctor of philosophy (PhD)

Kudratov Sanjar Marupovich
Jinoyat protsessida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatining nazariy va amaliy jihatlari.....5

Кудратов Санжар Марупович
Теоретические и практические аспекты деятельности негосударственных судебно-экспертных организаций в уголовном процессе.....25

Kudratov Sanzhar Marupovich
Theoretical and Practical Aspects of the Activities of Non-State Forensic Expert Organizations in Criminal Proceedings…….....…….....49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works…….....53

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.24/2026.31.01.Yu.01.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUQUQNI MUHOFAZA QILISH AKADEMIYASI

KUDRATOV SANJAR MARUPOVICH

JINOYAT PROTSESSIDA NODAVLAT SUD-EKSPERTIZA TASHKILOTLARI FAOLIYATINING NAZARIY VA AMALIY JIHATLARI

12.00.09 – Jinoyat protsessi. Kriminalistika, tezkor-qidiruv huquqi va sud ekspertizasi

yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent shahri – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Yu1250 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.proacademy.uz) va “Ziyonet” Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Urozbayev Sardorbek Odilbekovich** yuridik fanlar nomzodi, dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Kadirova Moxigul Xamitovna** yuridik fanlar doktori, professor
	Imomnazarov Alisher Xasanovich yuridik fanlar doktori
Yetakchi tashkilot:	**O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc. 24/2026.31.01.Yu.01.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil 19-noyabr kuni soat 14:30 dagi majlisida bo‘lib o‘tdi (Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9. Tel.: (+99871) 202-04-96; e-mail: info@proacademy.uz).

Dissertatsiya bilan Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (103-raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100047, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Rixsiliy ko‘chasi, 9. Tel.: (+99871) 202-04-96.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 06-noyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil 06-noyabr 22-raqamli reyestr bayonnomasi).

V.Karimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, yuridik fanlar doktori, professor

Sh.I.Shayzakov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G‘.M.Shodiyev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik fanlar doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda jinoyat-protsessual faoliyatda maxsus bilimlardan foydalanish va sud-ekspertiza xizmatlariga bo‘lgan talab ortib bormoqda. Jinoyatchilikning murakkablashuvi, raqamli texnologiyalarning tarqalishi va transmilliy jinoyatlarning ko‘payishi malakali ekspertiza xizmatlariga, shu jumladan nodavlat sud-ekspertiza subyektlariga bo‘lgan ehtiyojni kengaytirmoqda. Xususan, jahon sud-ekspertiza texnologiyalari bozori hajmi 2024-yilda 18,65 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lib, 2025-yilda 20,94 milliard dollarga yetgan va 2033-yilga borib 52,89 milliard dollarga yetishi prognoz qilinmoqda[1]. Bu esa nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini ilmiy jihatdan o‘rganishni dolzarb masalaga aylantirmoqda.

Jahonda sud-ekspertiza xulosalarining ilmiy asoslanganligi, ishonchliligi va xolisligini ta’minlash, shuningdek, ekspert xatolari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noto‘g‘ri protsessual qarorlarning oldini olish masalalari alohida ilmiy-amaliy muammo sifatida o‘rganilmoqda. AQShda DNK tahlili asosida oqlangan ishlarning taxminan 50 foizida noto‘g‘ri qo‘llangan sud-ekspertiza xulosalari nohaq hukmga hissa qo‘shgani[2], milliy oqlanish reyestri ma’lumotlariga ko‘ra barcha nohaq hukmlarning 24 foizida soxta yoki chalg‘ituvchi ekspertiza dalillari omil bo‘lgani aniqlangan[3]. Bunday holatlar jinoyat protsessida ekspertiza faoliyatining xolisligi va sifatini ta’minlash bilan bir qatorda, taraflarga mustaqil ekspertni jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirish, muqobil ekspertiza mexanizmlarini rivojlantirish hamda davlat ekspertiza tizimi bilan sog‘lom raqobat qila oladigan nodavlat sud-ekspertiza institutining huquqiy asoslarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Mamlakatimizda sud-huquq tizimini izchil isloh qilish, sudlovda tortishuv va taraflar tengligini mustahkamlash, shuningdek, ekspertlik xizmatlari bozorida raqobatni shakllantirish jarayonida nodavlat sud-ekspertiza tuzilmalarini rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor berilmoqda. Hozirgi vaqtda respublikada 6 ta nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti faoliyat yuritayotgan bo‘lib, mazkur tashkilotlar tomonidan 2023–2025-yillar hamda 2026-yilning birinchi yarim yilligi mobaynida jami 5 698 ta sud-ekspertiza tadqiqoti o‘tkazilgan[4]. Biroq amaliyotda mazkur tashkilotlarning protsessual maqomi, ekspert xulosalarining isbotiy ahamiyati, ekspertlar mustaqilligi va javobgarligi bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. Shu bois nodavlat sud-ekspertizasi institutining protsessual maqomi va ekspert xulosasining isbot qilishdagi o‘rnini aniq belgilash, uni samarali qo‘llash mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu holatlar ushbu dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va zaruratini belgilaydi.

---

[1]Forensic Technologies Market Size, Growth Report [2033]. SkyQuest Technology, 2025 // https://www.skyquestt.com/report/forensic-technologies-market

[2]Forensic Problems and Wrongful Convictions. Innocence Project // https://innocenceproject.org/news/forensic-problems-and-wrongful-convictions

[3]Junk Science (National Registry of Exonerations ma’lumotlari asosida). Kentucky Innocence Project // https://www.kentuckyinnocenceproject.org/junk-science

[4]O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining 2023–2025-yillar yakunlari va 2026-yil birinchi yarim yilligi holati bo‘yicha hisoboti.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023), O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (1994), O‘zbekiston Respublikasining “Sud-ekspertlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni (2026), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4125-son Qarori (2019), “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF–6256-son Farmoni (2021), “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish va sohaga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-270-sonli Qarori (2025), O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 73-son Qarori (2023), Vazirlar Mahkamasining “Nodavlat sud-ekspertiza sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 73-son qarori va unga ilova bo‘lgan “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi (2026), Vazirlar Mahkamasining “Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining sud ekspertlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 474-sonli Qarori (2026) hamda boshqa sohaga oid qonunchilik hujjatlarida belgilangan vazifalarning ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan bajarilishiga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi bilan bog‘liq nazariy va amaliy masalalar mamlakatimiz olimlaridan R.Alimova, I.R.Astanov, N.D.Bababekov, L.O.Barakayev, Q.K.Bayzakov, D.B.Bazarova, H.X.Boltayev, R.Boysafarov, Sh.B.Eshmuratov, O.Ganiyev, S.I.Indiaminov, D.M.Mirazov, S.A.Otaxo‘jayev, Yu.S.Pulatov, U.Raximova, A.X.Raxmankulov, F.B.Sobirov, A.U.Xalilov, L.Yu.Yugay, A.K.Zakurlayev, A.Zulfukorov va boshqalarning ilmiy ishlarida jinoyat protsessida dalillar, maxsus bilimlardan foydalanish, ekspert xulosasining isbotiy ahamiyati hamda sud-ekspertiza muassasalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy jihatlari doirasida tadqiq etilgan[1].

Xususan, ekspert faoliyatining mustaqilligini saqlash va unga ta’sir o‘tkazilishining oldini olish masalalari A.U.Xalilov ishlarida, sud-ekspertlik faoliyatining huquqiy asoslari hamda davlat va nodavlat ekspertiza muassasalaridan foydalanish jihatlari esa L.Yu.Yugay tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

MDH mamlakatlari olimlaridan N.I.Abbasov, V.M.Azarenko, R.S.Belkin, M.S.Chernyavskaya, Ye.V.Chesnokova, O.G.Dyakonova, V.V.Kamarova, Yu.S.Kudryavsev, B.M.Kurmanbayev, L.V.Lazareva, S.V.Lukoshkina, N.P.Maylis, T.F.Moiseyeva, V.A.Nazarov, A.V.Nesterov, Ye.R.Rossinskaya, A.A.Sarkisyan, S.A.Smirnova, A.I.Usov, Sh.N.Xaziyev, A.M.Zinin va boshqa

[1] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

olimlar ekspertlik faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari, sud ekspertining protsessual maqomi, ekspertiza tuzilmalarini tashkil etish, ekspert xulosasini baholash hamda nodavlat sud ekspertizasini rivojlantirish masalalarini yoritgan[1].

Bu borada xorijiy davlatlar olimlaridan G.Arzt, A.Ashworth, V.Barwick, M.Bowers, W.Burnham, S.Doyle, B.Keulen, S.Kim, S.Knörnschild, J.Koehler, P.J.Koppen, N.Kwakman, B.Magnusson, M.Nogel, U.Örnemark, W.Platzgummer, C.Roxin, M.Saks, A.Samuels, H.Swofford, K.Tiedemann, L.Wilson-Wilde va boshqalarning ishlarida ekspert dalilining ishonchliligi, sud-ekspertlik faoliyatida sifat nazorati, akkreditatsiya va xalqaro standartlarni joriy etish masalalari ilmiy jihatdan asoslangan[2].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarda asosan sud ekspertizasi, maxsus bilimlar va ekspert xulosasiga oid umumiy masalalar o‘rganilgan. Mustaqil (nodavlat) ekspertiza tuzilmalarining jinoyat ishlaridagi o‘rni, faoliyatini protsessual tartibga solish, xulosasini baholash va ekspertiza xarajatlarini qoplash masalalari kompleks monografik tadqiqot darajasida yetarlicha o‘rganilmaganligi ushbu dissertatsiya mavzusining ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilib, “Jinoyat-protsessual qonunchilik normalarini qo‘llashni takomillashtirish muammolari” ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Jinoyat protsessida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunchilik va amaliyotni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ilg‘or xorijiy tajriba asosida ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

sud-ekspertlik faoliyatining rivojlanish tarixi va nazariy-huquqiy asoslarini tahlil qilish;

sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatining yuridik tabiati va tashkiliy-huquqiy shakllarini aniqlash;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslarini tadqiq etish;

jinoyat protsessida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga ekspertiza tayinlash hamda o‘tkazish bilan bog‘liq muammolarni aniqlash;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari xulosalarini baholashning o‘ziga xos jihatlarini tahlil qilish;

xorijiy mamlakatlar qonunchiligida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini qiyosiy-huquqiy tahlil qilish hamda ilg‘or xorijiy tajribani aniqlash;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari jinoyat protsessual faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish masalalarini aniqlash.

[1] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.
[2] Mazkur olimlarning ilmiy ishlari dissertatsiya ishining foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida berilgan.

Tadqiqot obyekti. Jinoyat protsessida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatining nazariy va amaliy jihatlari bilan bog‘liq ijtimoiy-huquqiy munosabatlar tizimi tashkil etadi.

Tadqiqot predmeti. Jinoyat protsessida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining huquqiy maqomi va protsessual vakolatlariga doir milliy va xorijiy qonunchilik normalari, sud-ekspertiza faoliyatini huquqiy tartibga solish amaliyoti, mazkur sohada yuzaga kelayotgan nazariy va amaliy masalalar hamda nodavlat sud-ekspertiza faoliyatiga oid ilmiy-nazariy qarashlar va konseptual yondashuvlar majmuidan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot olib borishda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullari, xususan, tarixiy, qiyosiy-huquqiy, mantiqiy, aniq sotsiologik (so‘rovnoma), ilmiy ma’lumotlarni kompleks o‘rganish, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish usullari bilan bir qatorda induksiya va deduksiya kabi umumilmiy usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

nodavlat sud ekspertining huquqiy maqomi, kasbiy vakolatlari, faoliyat doirasi hamda sud ish yurituvidagi o‘rnini aniq belgilash va uni mustaqil nazariy-huquqiy toifa sifatida e’tirof etish maqsadida “nodavlat sud eksperti” tushunchasini sud-ekspertiza qonunchiligiga kiritish zarurligi asoslantirilgan;

nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti, uning tarkibida faoliyat yurituvchi sud eksperti hamda tashkilot rahbarining protsessual maqomini jinoyat-protsessual qonunchilik darajasida aniq belgilash lozimligi asoslantirib berilgan;

ayrim turdagi ekspertizalarni faqat davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan o‘tkazishga oid cheklovlarni bekor qilish hamda nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga sud-psixologiya, sud-avtotexnika, sud-iqtisodiy va kriminalistika ekspertizalarini amalga oshirish huquqini berish maqsadga muvofiqligi asoslangan;

ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligi, tushunarliligi va tekshirish imkoniyatini ta’minlash maqsadida, unda qo‘llanilgan atama-ta’riflar, dasturiy ta’minot, texnik vositalar hamda ekspertning malaka darajasiga doir ma’lumotlarning aks ettirilishi zarurligi asoslantirib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

jinoyat ishlarida tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov bosqichlarida ekspertiza xarajatlarini dastlab vakolatli organ davlat budjeti mablag‘lari hisobidan to‘lash, shaxs aybdor deb topilganda esa ushbu summani sudning hukmi yoki ajrimiga ko‘ra mahkumdan protsessual chiqim sifatida undirish tartibini joriy etish lozimligi asoslantirilgan;

birlamchi ekspertiza davlat sud-ekspertiza muassasasi tomonidan o‘tkazilgan hollarda qo‘shimcha, qayta, komissiyaviy va kompleks ekspertizalarni nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari yoki tegishli maxsus bilimga ega boshqa shaxslarga topshirish imkoniyatini, shuningdek nodavlat sud eksperti xulosasiga qo‘shilmagan taqdirda qayta ekspertizani davlat, nodavlat ekspert tuzilmasi yoxud maxsus bilimga ega boshqa shaxsga yuklash tartibini normativ mustahkamlash zarurati asoslantirilgan;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari vakolat doirasini kengaytirish va zamonaviy ehtiyojlarga javob beruvchi yangi ekspertiza turlarini joriy etish

zarurligi asoslab berilgan;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarida kadrlar tanqisligini bartaraf etish maqsadida muayyan ekspertiza yo‘nalishi bo‘yicha besh yildan kam bo‘lmagan mehnat stajiga ega shaxslar, shuningdek so‘nggi ikki yil mobaynida davlat sud-ekspertiza muassasalarida uzluksiz faoliyat yuritgan sud ekspertlarini qayta tayyorlash kurslaridan ozod etgan holda nodavlat sud eksperti sertifikatini olish uchun malaka imtihoniga qo‘yish maqsadga muvofiqligi asoslantirilgan;

“E-ekspertiza” yagona elektron axborot tizimini nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari ish yurituviga joriy etish zarurligi asoslantirilgan;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarida ekspert xulosalarining ilmiy va protsessual ishonchliligini oshirish uchun ISO/IEC 17025 xalqaro standartini bosqichma-bosqich joriy etish hamda xalqaro tan olingan sud-ekspertlik usullari va uslubiyatlarini validatsiya qilish zarurati asoslab berilgan;

sud-ekspertiza sohasida metodologik bazani mustahkamlash, davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari o‘rtasida ilmiy-tadqiqot hamkorligini kengaytirish zarurligi asoslantirilgan;

nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirish uchun ularning moddiy-texnik imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy ko‘mak mexanizmlarini yo‘lga qo‘yish, ekspertlarning kasbiy salohiyatini muntazam rivojlantirish hamda xorijda stajirovka o‘tash amaliyotini joriy etish zarurligi asoslab berilgan;

nodavlat sud eksperti xulosasini baholashning yagona mezonlari ishlab chiqilgan;

Adliya vazirligi tomonidan yuritilayotgan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari reyestrini “E-ekspertiza” axborot tizimi orqali “E-material” va “E-XSUD” axborot tizimlari bilan integratsiya qilishning tashkiliy-amaliy mexanizmlarini joriy etish zarurati asoslantirilgan;

sud ekspertizasini tayinlash vakolatiga ega subyektlarni ilmiy-uslubiy, tashkiliy va axborot jihatdan qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi “Sud-Expert” intellektual tizimini joriy etish zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda mamlakatimiz va xorijiy olimlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda tavsiya etilgan uslublardan foydalanilgan. Ilmiy-nazariy xulosalar xalqaro ilmiy bazalar, rasmiy manbalar va ishonchli statistik ma’lumotlar asosida shakllantirilgan.

Tadqiqot mavzusi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi, Oliy sudi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati, Bojxona qo‘mitasi, Advokatlar palatasi hamda boshqa tegishli davlat organlari va tashkilotlar vakillari o‘rtasida ijtimoiy so‘rovnoma o‘tkazilgan (unda jami 341 nafar respondent, jumladan, sud xodimlari – 57 nafar, prokuratura organlari xodimlari – 46 nafar, ichki ishlar organlari xodimlari – 34 nafar, Davlat xavfsizlik xizmati xodimlari – 25 nafar, bojxona organlari xodimlari – 74 nafar, advokatlar – 57 nafar hamda boshqa soha vakillari – 48 nafar ishtirok etgan). Tadqiqot natijalari yuzasidan ilgari surilgan ayrim taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilgan hamda tegishli dalolatnomalar bilan tasdiqlangan, shuningdek, tadqiqotning asosiy ilmiy natijalari yetakchi milliy va xorijiy ilmiy nashrlarda e’lon qilingan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati undagi xulosalar, taklif va tavsiyalardan kelgusi ilmiy tadqiqotlarda, qonun ijodkorligida, huquqni qo‘llash amaliyotida, milliy qonunchilikni takomillashtirishda hamda sud ekspertizasi sohasini modernizatsiya qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa jinoyat-protsessual qonunchilikni takomillashtirishda, qonun ijodkorligi faoliyatida, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi qarorlari hamda idoraviy normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda; O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual qonunini qo‘llash amaliyotida, shu jumladan tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudlar faoliyatida, yuridik ta’lim muassasalarining “Kriminalistika”, “Jinoyat-protsessual huquq”, “Sud ekspertizasi” fanlaridan o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazishda hamda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishda namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dissertatsiya mavzusiga oid milliy qonunchilik va amaliyotni takomillashtirish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

nodavlat sud ekspertining huquqiy maqomi, kasbiy vakolatlari, faoliyat doirasi hamda sud ish yurituvidagi o‘rnini aniq belgilash va uni mustaqil nazariy-huquqiy toifa sifatida e’tirof etish maqsadida “nodavlat sud eksperti” tushunchasini sud-ekspertiza qonunchiligiga kiritish haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasining 2026-yil 11-iyundagi “Sud-ekspertlik faoliyati to‘g‘risida”gi O‘RQ–1152-son Qonunning 3-moddasini ishlab chiqishda foydalanilgan *(O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazining 2026-yil 19-iyundagi 29-22-685-son dalolatnomasi)*. Mazkur taklifning joriy etilishi nodavlat sud ekspertlarining huquqiy maqomini mustahkamlash va faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti, uning tarkibida faoliyat yurituvchi sud eksperti hamda tashkilot rahbarining protsessual maqomini jinoyat-protsessual qonunchilik darajasida aniq belgilash haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqishda inobatga olingan *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2026-yil 31-iyuldagi №3/dn-150-sonli dalolatnomasi)*. Ushbu taklifning joriy etilishi nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti, sud eksperti va tashkilot rahbarining jinoyat protsessidagi ishtiroki asoslarini normativ mustahkamlash hamda nodavlat sud-ekspertlik faoliyatini kengaytirishga xizmat qilgan;

ayrim turdagi ekspertizalarni faqat davlat sud-ekspertiza muassasalari tomonidan o‘tkazishga oid cheklovlarni bekor qilish hamda nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga sud-psixologiya, sud-avtotexnika, sud-iqtisodiy va kriminalistika ekspertizalarini amalga oshirish huquqini berishga oid taklifi O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqishda inobatga olingan *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2026-yil 31-iyuldagi №3/dn-150-sonli dalolatnomasi)*. Ushbu taklifning joriy etilishi sud-ekspertiza

sohasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, ekspertiza tashkilotini tanlash imkoniyatini kengaytirish hamda davlat sud-ekspertiza muassasalari yuklamasini kamaytirishga xizmat qilgan;

ekspert xulosasining ilmiy asoslanganligi, tushunarliligi va tekshirish imkoniyatini ta’minlash maqsadida, unda qo‘llanilgan atama-ta’riflar, dasturiy ta’minot, texnik vositalar hamda ekspertning malaka darajasiga doir ma’lumotlarning aks ettirilishi haqidagi taklif O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqishda inobatga olingan *(O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi huzuridagi Parlament tadqiqotlari institutining 2026-yil 31-iyuldagi №3/dn-150-sonli dalolatnomasi)*. Ushbu taklifning joriy etilishi ekspert xulosasining mazmunini to‘liq anglash, uning asoslanganligini tekshirish hamda ishonchliligini xolis baholash imkoniyatini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 1 ta monografiya va 14 ta ilmiy maqola (6 tasi dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy nashrlarda, 3 tasi xorijiy nashrlarda, 5 tasi esa xalqaro konferensiya to‘plamlarida) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi kirish, uch bob, to‘qqiz paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 156 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi) qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va ahamiyati, tadqiqot ishining respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlariga mosligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e’lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston Respublikasida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatining nazariy-huquqiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida sud-ekspertlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish tarixi, sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatining yuridik tabiati, ularning tashkiliy-huquqiy shakllari, shuningdek O‘zbekiston Respublikasida davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari, vujudga kelishi hamda rivojlanish bosqichlari kompleks ravishda tadqiq etilgan.

Dissertant tomonidan sud-ekspertlik faoliyatining nazariy-huquqiy mohiyatini ochib berish maqsadida uning tarixiy taraqqiyoti bosqichma-bosqich o‘rganilib, dastlab maxsus bilimga ega alohida shaxslarning muayyan masalalarni hal etishdagi

ishtiroki shaklida namoyon bo‘lgan ushbu faoliyat keyinchalik alohida tashkiliy va protsessual xususiyatlarga ega mustaqil huquqiy institut sifatida shakllangani asoslab berilgan. Tarixiy manbalar hamda sud-ekspertlik faoliyatining rivojlanish qonuniyatlarini umumlashtirish natijasida jahon amaliyotida uning taraqqiyotini quyidagi olti bosqichga ajratish taklif etilgan:

birinchi bosqich – qadimgi davrlarda maxsus bilimlardan foydalanishning dastlabki ko‘rinishlari shakllangan davr;

ikkinchi bosqich – XVI–XVII asrlarda sud-ekspertlik faoliyatining nazariy asoslari shakllana boshlagan davr;

uchinchi bosqich – XVII asrning ikkinchi yarmidan XIX asr oxirigacha sud-ekspertlik amaliyotining kengayishi va uslubiy jihatdan takomillashuvi davri;

to‘rtinchi bosqich – XIX asr oxiri – XX asr o‘rtalarida sud-ekspertlik faoliyatining institutsionallashuvi davri;

beshinchi bosqich – XX asr o‘rtalaridan XX asr oxirigacha sud ekspertizasining alohida sohaviy yo‘nalishlarga ajralishi va ixtisoslashuvi davri;

oltinchi bosqich – XX asrning 90-yillaridan boshlab sud-ekspertlik faoliyatini standartlashtirish va akkreditatsiyadan o‘tkazish, sohaga raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda nodavlat sud-ekspertiza sektorining rivojlanishi bilan tavsiflanuvchi zamonaviy davr.

Tadqiqotchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik faoliyatining shakllanishi va rivojlanish tarixi ham mustaqil ravishda davrlashtirilib, sud-tibbiy ekspertiza, ichki ishlar organlarining ekspert-kriminalistika xizmati, Adliya vazirligi tizimidagi sud-ekspertiza muassasalari hamda nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining vujudga kelishi va rivojlanishi alohida yo‘nalishlar sifatida tadqiq etilgan. Bunday yondashuv mamlakatimizda sud-ekspertlik faoliyatining rivojlanishini umumiy tarixiy jarayon sifatida emas, balki o‘zaro bog‘liq va ayni paytda o‘ziga xos institutsional xususiyatlarga ega yo‘nalishlar tizimi sifatida baholash imkonini bergan.

Tadqiqot davomida sud-ekspertlik faoliyatining nazariy asoslarini aniqlashtirish yuzasidan mamlakatimiz va xorijiy olimlar, jumladan, S.A.Otaxo‘jayev, R.Alimova, B.A.Mirenskiy, H.X.Boltayev, Q.K.Bayzakov, I.R.Astanov, B.B.Hidoyatov, Yu.S.Pulatov, Z.A.Giyasov va boshqalar, shuningdek T.V.Averyanova, Yu.K.Orlov, Ye.R.Rossinskaya, R.S.Belkin, O.G.Dyakonova, A.M.Zinin, G.G.Omelyanyuk, A.I.Usov, Sh.N.Xaziyev, N.P.Maylis, S.A.Smirnova, N.Tkachenko va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Ushbu tahlil natijasida sud-ekspertlik faoliyatini faqat maxsus bilimlardan foydalanish bilan chegaralash uning mazmunini to‘liq ifodalamasligi, mazkur faoliyat qonunda belgilangan protsessual shaklda, muayyan tashkiliy tizim hamda institutsional kafolatlar doirasida amalga oshiriladigan huquqiy faoliyat ekanligi haqidagi xulosaga kelingan.

Dissertant tomonidan B.B.Hidoyatov, T.V.Averyanova, R.S.Belkin va Yu.K.Orlovaning *sud-ekspertlik faoliyati subyektlari*ga doir ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilinib, ushbu faoliyat subyektlarini faqat ekspertiza muassasasi yoki sud eksperti doirasi bilan cheklash ilmiy jihatdan yetarli emasligi aniqlangan. Sud-ekspertlik faoliyatida ekspertiza tayinlash, uni tashkil etish, o‘tkazish,

natijalarini rasmiylashtirish hamda ulardan isbot qilish jarayonida foydalanish bilan bog‘liq turli subyektlar ishtirok etishi inobatga olinib, uni ko‘p subyektli va turli shakldagi huquqiy munosabatlar tizimi sifatida tushunish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.

Shu asosda, dissertant tomonidan “sud-ekspertlik faoliyati subyektlari” tushunchasining ularning jinoyat-protsessual ahamiyati, isbot qilish jarayonidagi o‘rni va protsessual maqomini kompleks ravishda qamrab oluvchi mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasida *nodavlat sud-ekspertiza tashkilotining huquqiy tabiati*ga alohida e’tibor qaratilib, uni oddiy notijorat tashkilot sifatida emas, balki sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishga ixtisoslashtirilgan, o‘ziga xos tashkiliy-huquqiy maqomga ega yuridik shaxs sifatida tushunish maqsadga muvofiqligi asoslangan. Bunda nodavlat sud-ekspertlik faoliyatini oddiy fuqarolik-huquqiy xizmat ko‘rsatish faoliyati sifatida baholash uning mohiyatini to‘liq ochib bermasligi ko‘rsatilib, mazkur faoliyat maxsus bilimlardan foydalanish, ekspertlarni sertifikatlashtirish, protsessual mas’uliyat, ekspertning mustaqilligi hamda tadqiqot natijalarining daliliy ahamiyatga egaligi kabi o‘ziga xos belgilar bilan tavsiflanishi asoslab berilgan.

Mazkur masalani tadqiq etish jarayonida Ye.R.Rossinskaya, Ye.I.Galyashina, M.S.Chernyavskaya va N.Tkachenko kabi olimlarning “sud-ekspertlik tuzilmalari” tushunchasiga doir ilmiy qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Mavjud ilmiy ta’riflar mazkur tushunchaning huquqiy mohiyati hamda tashkiliy-protsessual xususiyatlarini to‘liq qamrab olmasligi aniqlanib, shu asosda uning mazmunini tizimli aks ettiruvchi mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Unga ko‘ra, sud-ekspertlik tuzilmalari – davlat sud-ekspertiza muassasalari, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari, sud-ekspertlik byurolari, shuningdek o‘z faoliyat yo‘nalishi doirasida sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshiruvchi ilmiy va oliy ta’lim tashkilotlarini qamrab oluvchi tuzilmalar tizimidir.

Tadqiqotda A.I.Tarkinskiy, S.N.Yusupkadiyeva, B.M.Kurmanbayev va T.A.Shagdarovaning mazkur masalaga oid ilmiy yondashuvlari tahlil qilinib, “nodavlat sud eksperti” tushunchasining mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, nodavlat sud eksperti – nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti yoki sud-ekspertlik byurosida faoliyat yurituvchi hamda ma’lum bir ekspertiza turi yuzasidan sud ekspertizasini o‘tkazuvchi sud ekspertidir.

Tadqiqot davomida O‘zbekistonda nodavlat sud-ekspertiza instituti faoliyatining zamonaviy huquqiy asoslari kompleks tadqiq etilgan. Uning rivojlanish tendensiyalari 2019-yil 17-yanvardagi PQ–4125-son qaror, Vazirlar Mahkamasining 2023 va 2026-yillardagi tegishli qarorlari hamda 2026-yil 11-iyundagi O‘RQ–1152-son “Sud-ekspertlik faoliyati to‘g‘risida”gi Qonun asosida tahlil qilingan. Yangi Qonun bilan nodavlat sud-ekspertiza faoliyatining huquqiy asoslari yanada mustahkamlangani qayd etilib, mazkur institutning sud-ekspertlik faoliyati tizimidagi mustaqil subyekt sifatidagi o‘rni rivojlanib borayotgani asoslab berilgan.

Dissertatsiyaning **“Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining jinoyat-protsessidagi faoliyatida yuzaga keladigan muammolar”** deb nomlangan

ikkinchi bobida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga ekspertiza tayinlash va uni o‘tkazish bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy hamda protsessual muammolar, shuningdek ular tomonidan berilgan ekspert xulosalarini tekshirish va baholashning o‘ziga xos jihatlari kompleks ravishda tadqiq etilgan.

Dissertant tomonidan jinoyat protsessida himoya tomonining nodavlat ekspertlik imkoniyatlaridan foydalanishi uchun yetarli protsessual shart-sharoitlarning yaratilmagani taraflar tengligi va tortishuv tamoyilining to‘laqonli ta’minlanishiga to‘sqinlik qiluvchi huquqiy muammolardan biri sifatida baholangan. Shaxsning konstitutsiyaviy himoyalanish huquqi, shuningdek JPKning 179-moddasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchiga o‘zi ko‘rsatgan shaxslar orasidan ekspert tayinlanishini so‘rash huquqi mustahkamlanganiga qaramay, mazkur imkoniyatning nodavlat sud ekspertlariga nisbatan amalda yetarli darajada ro‘yobga chiqmayotgani aniqlangan. Qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida U.Ernazarov, M.G.Juk, J.V.Ramazevich va D.N.Madiyevaning ilmiy qarashlari, shuningdek Vengriya, Ukraina va Avstriya kabi davlatlarning ilg‘or qonunchilik tajribasiga tayangan holda, jinoyat protsessida nodavlat ekspertlik imkoniyatlarini kengaytirish orqali shaxsning himoyalanish huquqi, taraflar tengligi va tortishuv tamoyilining amaliy kafolatlarini kuchaytirish zarurligi asoslantirilgan.

Tadqiqot davomida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatining uslubiy ta’minoti holati o‘rganilib, ushbu tashkilotlarda mustaqil ravishda ishlab chiqilgan va tegishli tartibda aprobatsiyadan o‘tkazilgan uslubiy bazaning yetarli darajada shakllanmagani, ekspertiza tadqiqotlarini amalga oshirishda ular asosan boshqa ekspertiza muassasalari tomonidan ishlab chiqilgan uslubiy qo‘llanmalarga tayanayotgani aniqlangan. Mazkur holat o‘tkazilayotgan ekspertiza tadqiqotlarining sifati, ilmiy asoslanganligi va ishonchliligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan muammo sifatida baholangan. Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari asosida J.M.Nuritdinov, A.K.Zakurlayev, F.B.Sobirov va A.I.Yangirovning ilmiy qarashlari, shuningdek, Buyuk Britaniyaning Forensic Capability Network hamda Avstraliya va Yangi Zelandiyaning NIFS kabi tizimlarning ijobiy tajribasiga tayangan holda, uslubiy qo‘llanmalar va metodik tavsiyalarni ishlab chiqish hamda aprobatsiyadan o‘tkazish jarayonlariga nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarini jalb etish orqali qo‘shma ilmiy-tadqiqot hamkorligini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqligi asoslab berilgan.

Tadqiqotchi tomonidan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining moddiy-texnik ta’minoti, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari va ekspertlar malakasini oshirish tizimi yetarli darajada shakllanmagani ularning jinoyat protsessida samarali ishtirokini cheklovchi omil sifatida baholangan. Respondentlarning 59,8 foizi nodavlat sud ekspertlarining kasbiy tayyorgarligi yetarli emasligini, 77,1 foizi esa davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining moddiy-texnik bazasida nomutanosiblik mavjudligini qayd etgan. Mazkur tahlil natijalari, A.Zulfukorov, A.F.Volinskiy, A.I.Usov va M.V.Toropovaning ilmiy qarashlari hamda AQSHda qo‘llab-quvvatlashning ijobiy tajribasiga tayangan holda, Adliya vazirligi huzuridagi Sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi imkoniyatlaridan foydalanish, subsidiya va grantlar

ajratish, shuningdek xorijiy stajirovkalar va malaka oshirish tizimini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha taklif ishlab chiqilgan.

Tadqiqot davomida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini raqamlashtirish masalalari ham o‘rganilib, respublikada faoliyat yuritayotgan mazkur tashkilotlarning “E-ekspertiza” yagona elektron axborot tizimiga to‘liq integratsiya qilinmagani ekspertiza tayinlash, materiallarni elektron shaklda almashish, ekspertiza muddatlarini nazorat qilish hamda xulosalarni taqdim etishda yagona tashkiliy va axborot yondashuvining shakllanishiga to‘sqinlik qilayotgani aniqlangan. Qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida Qozog‘istonning “E-Saraptama”, Estoniyaning “e-File” va Yevropa Ittifoqining “e-Justice” portali bo‘yicha ilg‘or tajribasi o‘rganilib, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarini elektron ro‘yxatdan o‘tkazish, ularga ekspertiza tayinlash, ekspert xulosasini elektron raqamli imzo yordamida rasmiylashtirish, ekspertiza muddatlari va to‘lovlarni onlayn kuzatish imkonini beruvchi “E-ekspertiza” tizimini nodavlat sektor uchun ham to‘liq joriy etish zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqotchi tomonidan nodavlat sud-ekspertiza faoliyatining kadrlar bilan ta’minlanganligi o‘rganilib, malakali mutaxassislar yetishmasligi hamda sud ekspertizasining muayyan turi bo‘yicha yetarli amaliy tajribaga ega mutaxassislarning ham kamida olti oylik qayta tayyorlash kursini majburiy o‘tashi ortiqcha tashkiliy va vaqt sarfiga sabab bo‘layotgani aniqlangan. Mazkur holat tajribali mutaxassislarni nodavlat sud-ekspertiza faoliyatiga jalb etishni cheklovchi omil sifatida baholangan. Qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida Ukraina va Rossiyaning tegishli amaliy tajribaga ega mutaxassislarni qayta tayyorlash kursisiz malaka imtihoniga qo‘yish bo‘yicha ilg‘or tajribasiga tayangan holda, sud ekspertizasining muayyan turi bo‘yicha kamida besh yillik ish stajiga ega yoki davlat sud-ekspertiza muassasasida so‘nggi ikki yil uzluksiz ishlagan mutaxassislarni qayta tayyorlash kursidan ozod etib, nodavlat sud eksperti sertifikatini olish uchun malaka imtihoniga qo‘yish zarurligi asoslab berilgan.

Dissertant tomonidan sud eksperti xulosasining jinoyat-protsessual ahamiyati va uni baholash mezonlarini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib, N.N.Yegorov, A.A.Protasevich, M.A.Dneprovskaya, S.L.Xertuyeva, D.B.Bazarova va I.R.Astanov kabi olimlarning mazkur tushunchaga doir ilmiy yondashuvlari tahlil qilingan hamda “sud eksperti xulosasi” tushunchasining mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan.

Unga ko‘ra, sud eksperti xulosasi – sud eksperti yoki sud ekspertlari komissiyasi tomonidan ish uchun ahamiyatli holatlarni aniqlash maqsadida maxsus bilimlar asosida o‘tkazilgan tadqiqot jarayoni va uning natijalari aks ettirilgan, dalil manbai hisoblanuvchi yozma shakldagi hujjatdir.

Tadqiqot natijasida amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda ekspert xulosasini baholashning maxsus tartibi belgilanmagani, u boshqa dalillar qatori umumiy mezonlar asosida baholanayotgani aniqlangan. Ekspert xulosasining maxsus bilimlarga asoslangan mustaqil dalil manbai ekanligi uni baholashda differensial yondashuvni talab etishi, aniq mezonlarning normativ va uslubiy jihatdan yetarli belgilanmagani esa huquqiy bo‘shliq sifatida baholangan. So‘rovda respondentlarning 78 foizi jinoyatlarni fosh etish va sud ishlarini hal etishda

nodavlat sud ekspertlari xulosalari muhim ahamiyatga egaligini qayd etgan. L.O.Barakayev, A.X.Raxmankulov, D.M.Mirazov, Y.V.Kudryavsev va Ye.I.Galyashinaning ilmiy qarashlari, shuningdek AQSH Federal dalillar qoidalari hamda "Daubert" ishi asosida shakllangan ilg‘or tajribaga tayangan holda, sud eksperti, shu jumladan nodavlat sud eksperti xulosasini huquqiy baholash amaliyotini unifikatsiya qilish maqsadida quyidagi mezonlarni normativ-metodik jihatdan mustahkamlash zarurligi asoslab berilgan:

- ekspertiza tayinlash va o‘tkazishda protsessual talablarga rioya qilinganligi;
- ekspertning tegishli maxsus bilim, malaka va vakolatga egaligi;
- tadqiqot obyektlari va qiyosiy namunalarning haqiqiyligi hamda yetarliligi;
- qo‘llanilgan usul va metodikalarning ilmiy asoslanganligi;
- tadqiqotning to‘liq va har tomonlama amalga oshirilganligi;
- xulosaning aniqligi, asoslanganligi va ish bo‘yicha boshqa dalillar bilan o‘zaro uyg‘unligi.

Tadqiqot davomida ekspert xulosalarida maxsus atama va texnik tushunchalarning izohlanmasligi, foydalanilgan dasturiy ta’minot va texnik vositalar haqidagi ma’lumotlar, shuningdek ekspertning tegishli ixtisosligi bo‘yicha so‘nggi malaka oshirish sanasining ko‘rsatilmasligi, ayniqsa raqamli va texnik ekspertizalarda, xulosaning ilmiy asoslanganligini baholash va natijalarni qayta tekshirish imkoniyatini cheklovchi muammo sifatida baholangan. Qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida R.S.Belkin, E.Keysi va G.G.Kamalovaning ilmiy qarashlari, shuningdek AQSH, Angliya va Uels, Moldova hamda Belarusning ilg‘or qonunchilik tajribasiga tayangan holda, JPKning 184-moddasi ikkinchi qismini ekspert xulosasida maxsus va texnik atamalar izohi, foydalanilgan dasturiy ta’minot va texnik vositalar haqidagi ma’lumotlar hamda ekspertning tegishli ixtisosligi bo‘yicha so‘nggi malaka oshirish sanasini ko‘rsatishni nazarda tutuvchi yangi tahrirda bayon etish taklif etilgan.

Dissertatsiyaning **"O‘zbekiston Respublikasida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining jinoyat-protsessual faoliyatini takomillashtirish"** deb nomlangan uchinchi bobida Germaniya, Avstriya, Litva, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Buyuk Britaniya va AQSH qonunchiligida nodavlat sud ekspertlari hamda sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari, ularni jinoyat protsessiga jalb etish tartibi, ekspertlarning malakasi va xolisligini ta’minlash, shuningdek ekspert xulosasini protsessual tekshirishga oid huquqiy mexanizmlar qiyosiy-huquqiy jihatdan tahlil qilingan. O‘tkazilgan qiyosiy-huquqiy tahlil natijasida xorijiy davlatlarda shakllangan ilg‘or huquqiy mexanizmlar umumlashtirilib, ularning milliy huquqiy tizimga mos jihatlarini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasida nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarining jinoyat-protsessual faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Shu bilan birga, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyati samaradorligini oshirish hamda mazkur institutni zamonaviy xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga doir nazariy va amaliy masalalar tadqiq etilgan.

Dissertant tomonidan amaldagi jinoyat-protsessual qonunchilikda nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti, uning sud eksperti hamda rahbarining protsessual maqomi

aniq belgilanmagani ushbu tashkilotlarning jinoyat ishlarini yuritishdagi to‘laqonli ishtirokini cheklovchi tizimli huquqiy muammo sifatida baholangan. So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 89,1 foizi nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatiga ehtiyoj mavjudligini, 89,4 foizi esa ularning protsessual maqomini qonunchilikda aniq belgilash zarurligini qayd etgan. A.U.Xalilov, K.S.Sefikurbanov, Z.G.Radjabova, N.I.Abbasov, M.Nogel, F.G.Aminev, Ye.R.Rossinskaya va A.I.Usovning ilmiy qarashlari, shuningdek Estoniya, Gruziya, Belarus, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Ukraina, Fransiya va Avstriyaning ilg‘or tajribasiga tayangan holda, JPKning 174 va 182-moddalarini nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti va uning eksperti ishtirokini bevosita nazarda tutuvchi normalar bilan to‘ldirish zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqotchi tomonidan sud-psixologik, sud-avtotexnik, sud-iqtisodiy va kriminalistik ekspertizalarni faqat davlat sud-ekspertiza muassasalarida o‘tkazishga doir cheklovlar tahlil qilingan. Mazkur cheklov davlat muassasalaridagi ekspertlar yuklamasining ortishi va ekspertiza muddatlarining uzayishiga sabab bo‘luvchi omil sifatida baholangan. X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyati tahlili asosida ayrim ekspertiza turlari bo‘yicha yuklama belgilangan me’yorlardan 4–10 barobar yuqoriligi, 2023–2025-yillar hamda 2026-yilning birinchi yarim yilligida 11 807 ta ekspertiza 30 kundan ortiq muddatda bajarilgani aniqlangan. Bu ko‘rsatkichlar ayrim ekspertiza turlarini faqat davlat muassasalarida o‘tkazish ekspertiza muddatlari va ekspertlar yuklamasiga bevosita ta’sir ko‘rsatayotganini ko‘rsatgan. Qiyosiy-huquqiy tahlil natijalari, respondentlarning 84,2 foizining fikri, M.B.Baybekova va U.Ernazarovning ilmiy qarashlari hamda Estoniya, Gruziya, Belarus, Qozog‘iston va Qirg‘izistonning ilg‘or qonunchilik tajribasiga tayangan holda, ayrim ekspertizalarni nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan ham o‘tkazishga imkon yaratish va JPKning 174-moddasi uchinchi qismidagi tegishli cheklovchi normalarni chiqarib tashlash taklif etilgan.

Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar, mobil qurilmalar, kripto-aktivlar, qurilish, yong‘in va portlash bilan bog‘liq holatlar yuzasidan maxsus bilimlarga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi nodavlat sektorda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan ekspertiza turlarini kengaytirish zaruratini yuzaga keltirayotgani asoslab berilgan. PF-80-son Farmonda belgilangan xususiy sektor ishtirokini kuchaytirish siyosati hamda xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib, PQ-4125-son qarorning 1-ilovasiga bino va inshootlarning texnik holati, yong‘in-texnik, portlash-texnik, mobil qurilmalar, kripto-aktivlar va blokcheyn tranzaksiyalari ekspertizalarini kiritish bo‘yicha taklif ishlab chiqilgan.

Dissertant tomonidan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari imkoniyatlaridan foydalanishga ta’sir etuvchi moliyaviy-huquqiy omillar tahlil qilinib, JPKning 318-moddasida budjet hisobidan to‘lanadigan summalar doirasi cheklangani hamda nodavlat tashkilotlarda ekspertiza o‘tkazish xarajatlari mazkur tartib bilan qamrab olinmagani sudgacha bo‘lgan bosqichda nodavlat ekspertlik imkoniyatlaridan foydalanishni cheklovchi huquqiy bo‘shliq sifatida baholangan. Respondentlarning 39 foizi ushbu xarajatlarni budjet mablag‘lari hisobidan, 39,9 foizi taraflardan biri, 19,4 foizi esa aybdor deb topilgan shaxs hisobidan qoplashni maqsadga muvofiq deb

hisoblagan. O.A.Yastrebov, S.A.Smirnova va M.V.Mozgovning ilmiy qarashlari hamda Xorvatiya, Qozog‘iston, Belarus, Estoniya, Gruziya, Ukraina va Fransiyaning ijobiy qonunchilik tajribasiga tayangan holda, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlarida ekspertiza xarajatlarini dastlab budjet hisobidan qoplash, keyinchalik tegishli hollarda mahkumdan protsessual chiqim sifatida undirish tartibini joriy etish maqsadida JPKning 318 va 320-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish taklif etilgan.

Tadqiqotchi tomonidan sud ekspertining mustaqilligi va xolisligini ta’minlashga qaratilgan protsessual kafolatlar o‘rganilib, jinoyat-protsessual qonunchilikda sud ekspertiga tahdid qilish, bosim o‘tkazish, ko‘rsatma berish yoki xizmat-ma’muriy qaramlik orqali uning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatish holatlarida yetarli protsessual kafolatlar belgilanmagani aniqlangan. Sud eksperti himoya qilinuvchi shaxslar qatoriga kiritilgan bo‘lsa-da, ushbu kafolatlarni JPK normalari bilan bog‘laydigan maxsus mexanizm mavjud emasligi ekspert mustaqilligi va xolisligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi huquqiy bo‘shliq sifatida baholangan. A.U.Xalilov va R.S.Belkinning ilmiy qarashlari hamda Rossiya, Qozog‘iston, Germaniya va AQSHning qonunchilik tajribasiga tayangan holda, sud ekspertini tashqi ta’sirlardan himoya qiluvchi maxsus protsessual kafolatlarni belgilash maqsadida JPKning 68, 180 va 182-moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish taklif etilgan.

Dissertant tomonidan davlat sud-ekspertiza muassasasining xulosasi yuzasidan tayinlanadigan qo‘shimcha, qayta, komissiyaviy va kompleks ekspertizalarni faqat davlat ekspertiza muassasalari doirasi bilan cheklash masalasi tanqidiy tahlil qilingan. Mazkur cheklov tortishuv tamoyili, taraflar tengligi va muqobil ekspert fikrini ta’minlash talablariga to‘liq mos kelmasligi asoslab berilgan. Respondentlarning 83 foizi jinoyat protsessida tenglik, qonuniylik va sog‘lom raqobatni ta’minlashda nodavlat sud ekspertlari ishtirokini zarur deb hisoblagan. Ye.R.Rossinskaya, Ye.I.Galyashina va F.G.Aminevning ilmiy qarashlari hamda Latviya, Rossiya va Qozog‘istonning qonunchilik tajribasiga tayangan holda, JPKning 176, 176^1 va 178-moddalariga qo‘shimcha, qayta, komissiyaviy va kompleks ekspertizalarni nodavlat sud-ekspertiza tashkilotiga yoki tegishli maxsus bilimga ega boshqa shaxsga topshirish imkoniyatini nazarda tutuvchi normalar kiritish zarurligi asoslab berilgan.

Tadqiqot davomida ekspertni tanlash va ekspertiza tayinlash jarayonining tashkiliy-axborot jihatlari tahlil qilinib, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari haqidagi ma’lumotlarning yetarlicha ochiq va tizimlashtirilgan shaklda mavjud emasligi amaliy muammo sifatida baholangan. So‘rov natijalariga ko‘ra, respondentlarning 30,6 foizi bunday tashkilotlar haqida to‘liq ma’lumotga ega emasligini qayd etgan. Rossiya, Belarus, Ukraina, Moldova, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Litva va Germaniyada nodavlat ekspertlar reyestrini yuritish tajribasiga tayangan holda, ushbu reyestrni “E-ekspertiza” tizimi orqali “E-material” va “E-XSUD” axborot tizimlari bilan integratsiya qilish, shu orqali ekspertiza tashkiloti, ekspert ixtisosligi va faoliyat yo‘nalishlari haqidagi ma’lumotlarni tezkor olish imkonini yaratish zarurligi ilgari surilgan.

